

NAZMIY RIVOYA VA UNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Jumaniyazova Dinora – tayanch doktorant

jumaniyozovadinora83@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ЛИРИЧЕСКОЕ ПОВЕСТВОВАНИЕ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Жуманиязова Динора – базовый докторант

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

LYRICAL NARRATIVE AND ITS SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS

Jumaniyazova Dinora – doctoral student

Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: rivoyat, folklor, sheʼriy shakl, stilizatsiya, modifikatsiya, badiiy uslub.

Rezyume. Mazkur oʻzbek adabiyotida rivoyaviy sheʼriyat va uning poetikasi muammosi ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Ayni masala sheʼriyatda folklorizmning vujudga kelishi hamda adabiy tur va janrlararo stilizatsiya hamda modifikatsiya hodisasi sifatida aniq misollar orqali tahlillar orqali umumlashtiriladi.

Ключевые слова: повествование, фольклор, поэтическая форма, стилизация, модификация, художественный стиль.

Резюме. В данной статье представлен научно-теоретический анализ проблемы повествовательной поэзии и её поэтики в узбекской литературе. Проблема рассматривается на основе анализа конкретных примеров возникновения фольклора в поэзии, а также феномена стилизации и модификации литературных типов и жанров.

Key words: narrative, folklore, poetic form, stylization, modification, artistic style.

Summary. This article presents a scientific and theoretical analysis of narrative poetry and its poetics in Uzbek literature. The problem is examined through specific examples of the emergence of folklore in poetry, as well as the phenomenon of stylization and modification of literary types and genres.

Kirish. Har bir xalq adabiyotining oʻziga xos tarixiy taraqqiyot tadriji, shakllanish bosqichlari mavjud. Oʻzbek adabiyoti ham hozirgi jarayonga qadar juda katta tarixiy davrlarni bosib oʻtgan holda turli darajadagi shakliyl-uslubiy izlanishlarga erishdi. Maʼlumki, barcha xalqlar adabiyoti tarixida kechgani kabi oʻzbek adabiyoti ham xalq ogʻzaki ijodi merosxoʻridir. Ayni xalq ogʻzaki ijodidagi boy milliy-maʼnaviy meros, olam va odamni anglash yuzasidagi eʼtiqodiy munosabatlar yozma adabiyotga koʻchar ekan, turli xil badiiy shakl va sanʼatlarning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Bugungi kunda adabiyotimizning barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, sheʼriyatda ham sifat jihatdan oʻzgarish va yangilanish jarayoni kechmoqda. Bu narsa birinchi galda badiiy tasvirning oʻziga xosligida, qahramonlarning maʼnaviy-intellektual faoliyatida, ruhiy hayotida namoyon boʻlayotir. Maʼnaviy qadriyatlarni bashariy mezonlar bilan oʻrganish va baholash, oʻzlikni anglashning oʻsishi, xalqimizning maʼnaviy sarchashmalar ildizlariga qaytishi asosida mustaqillik mafkurasini yanada mustahkamlashga intilish maʼlum darajada hozirgi davr sheʼriyatida namoyon boʻlmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rivoyat janri va uning oʻziga xos xususiyatlari boʻyicha folklorshunoslikda salmoqli ilmiy ishlar mavjud. Shuningdek, mumtoz va zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida ramziy-majoziy tasvir, badiiy psixologizm, obraz va ritm munosabati, hayotni poetik talqin etish taomillari, ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon, xalqona poetik tafakkur, uslubiy izlanishlar, modern sheʼriyat poetikasi, sheʼriy turkum tabiati kabi masalalar yuzasidan adabiyotshunosligimizda bir qancha monografik tadqiqotlar yaratildi. Xususan, oʻzbek adabiyotida nasriy sheʼr [3], sheʼriyat badiiy taraqqiyotida folklor [7], shoirlarning folklorizmlardan foydalanish mahorati [1], sheʼriyatda dialog va uning badiiy funksiyasi [9], anʼana va badiiy mahorat [2], sheʼriyatda janrlar

modifikatsiyasi [10] kabi masalalarning ilmiy-nazariy tahliliga bagʻishlangan tadqiqotlarda sheʼriyatga yangicha qarashlar ilgari surilgan, ilmiy-nazariy umumlashtirilgan. Lekin rivoyatlarning nazmiy ifodasi hamda unda shoirona mahorat masalasi yuzasidan hanuzgacha ilmiy munosabat bildirilganicha yoʻq.

Natijalar. Asrlar davomida yaratilgan va avloddan avlodga yetib kelayotgan xalq ogʻzaki ijodi namunalari barcha davrlarda avlodlar tomonidan yangilanib, shakllantirilgan holda boyitilib, gʻoyaviy-estetik jihatdan takomillashtirilib kelinadi. Maʼlumki, “Folklor xalq hayoti va tarixiy yoʻlining badiiy solnomasidir. Oʻtmishda yashab oʻtgan real tarixiy shaxslar bilan aloqador xalq qarashlari va tarixiy voqea-hodisalar bir qator anʼanaviy epik sujetlarning tugʻilishiga asos boʻlib xizmat qilgan. Tarixiy dostonlar, tarixiy qoʻshiqlar, tarixiy rivoyat va afsonalar sujetining zamini bevosita real voqelik asosiga qurilishi bilan xarakterlansa, folklor asarlarining sujet-kompozitsion tizimidagi koʻpgina motiv va obrazlarning tarixiyligi ham xalq ijodining ijtimoiy hayot bilan bevosita bogʻliqligini koʻrsatadi. Shuning uchun ham folklori ajdodlarimiz oʻtmishining badiiy tafakkur vositasida yetib kelgan tarixiy xotirasi deb hisoblash mumkin” [4, 5].

Shu maʼnoda, rivoyatlar oʻzining tematik tasnifi hamda janriy xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Taʼkidlash kerakki, har qanday hodisa, xususan, badiiy asar, sanʼatlar vaqt oʻtishi bilan sayqallanib davr talabi, inson maʼnaviy ehtiyoji hamda tafakkur tabiatiga koʻra muayyan shakllanish va yangilanishlarga uchraydi. Zero, “Rivoyat janri xalq qahramonlari, axloq normalarini naql etib, real faktlar misolida tasdiqlaydi. Unda ideal odob, mehnat tajribalari maʼqullanib, salbiy belgilar qoralanadi” [5:75]. Shunday ekan garchand rivoyat xalq ogʻzaki ijodiga mansub janr sifatida asosan, nasriy bayonda ifoda qilinsada, keyinchalik mavjud rivoyatlar sheʼriy yoʻsinda badiiy talqin qilinish hollari ham koʻplab uchraydi.

Muhokama. Folklorshunos olimlar ta'riflaganidek, "Rivoyat janrining muhim xossalardan biri hikoya qilish uslubi bo'lib, u nasriy bayonga asoslanadi. Bu narsa ustvor yo'nalishga ega. Mazkur jihat uni afsona janriga tenglashtiradi. Voqealar bayonida monolog, dialoglar deyarli qo'llanmaydi" [5:5]. Mazkur qarashlarni inkor etmagan holda aytish mumkinki, so'nggi yillarda folklorga xos an'analar, badiiy tasvirlar zamonaviy adabiyotning turli janrlarida qorishiq holda kelishi bir qator ilmiy tadqiqotlarda e'tirof etildi. Xususan, adabiyotshunos L.Sharipova bu borada shunday ta'kidlaydi: "Folklor materiali ma'lum ijodkor tafakkuri bilan qorishib, badiiy asar tarkibidagi unsurga aylangandagina folklorizm tug'iladi. Ayniqsa, sintezlashgan folklorizm asar tarkibiga qorishib ketadi va asar sujetini boyitadi, mukammallashtiradi, shoir maqsadining yuzaga chiqishida muhim rol o'ynaydi. Biror bir ijodkor folklorga xos sujetni o'z asari sujetiga singdirib yuborsa va bu ikki sujet qorishib, ajralmas holga kelsa, murakkab folklorizmning sintezlashgan ko'rinishi yuzaga keladi... Aksariyat hollarda sintezlashgan folklorizmni yuzaga keltirishda xalq rivoyat va afsonalari sujeti muhim o'rin egallaydi" [7:17].

Darhaqiqat adabiyotda bunday hodisalar ko'plab uchraydi va xalq og'zaki ijodiga xos badiiy tasvir, an'ana, motiv, sujet kabilar yozma adabiyotda o'ziga xos talqin qilinishi ilmiy asoslangan. Shuni ham e'tirof etish kerakki, ayni jarayonda istalgan tur va janrdagi badiiy asarlarda folklorizmning yuzasga kelishi bilan bir qatorda adabiy tur va janrlararo stilizatsiya hamda modifikatsiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi Q.Mamiraliyevning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun olib borgan tadqiqotida shunday xulosaga kelinadi: "Modifikatsiya hodisasi estetik mezonlar, qonuniyatlar turlarining boshqalari bilan ma'lum chegaralarda qo'shilishi, o'zgarishga uchrashida namoyon bo'ldi. Davr she'riyatida modifikatsiya hodisasining yuzaga kelishi, o'zbek adabiyotshunosligida ushbu jarayonning amaliy va nazariy ahamiyati, barmoq vaznida yozilgan she'rlarda janr chegaralarining erkinlashuvi masalasi ochib berilgan. Istiqloq davrida lirik janrlarning muayyan qoliplarga tushmasligini ko'rish mumkin. Yangilanish bosqichida o'zbek she'riyatining shakli va mazmuniy ko'lamini bir qadar kengaytdi. Mavzuning ifoda tarzi, janrlar va uslublar rang-baranglik kasb etdi" [10:60].

Ma'lumki, nasriy asarlarda rivoya uslubi badiiy niyatni amalga oshirish vositasi sanaladi. Lirikada muallif va qahramon munosabatini qadriyaviy mezonlar belgilab bergan holda borliq va uning estetik ahamiyatini baholash hamda anglash kompleksini vujudga keltiradi. Mazkur holat birinchidan, badiiy nutqning amaliy-estetik ishlanganlik darajasini tafovutlaydi, shuningdek, rivoya texnikasining funksional ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, muallif va qahramon pozitsiyasiga oydinlik kiritadi.

Folklorshunos olim K.Imomov o'z izlanishlarida ta'kidlaydiki, "Roviy rivoyat so'zidan olingan bo'lib, shaxsan eshitgan narsalarni takror aytuvchi ma'nosini anglatadi. Ayrim faktlar roviylarning qadimda mavjud bo'lganligidan xabar beradi. Abu Rayhon Beruniy musulmon olamida professional roviylar bo'lganligi haqida shunday xabar beradi: "Ash Sha'biy musulmon rivoyatlarini naql qiluvchi roviy"... Aytish mumkinki, qadimda roviylar bo'lgan. Keyinchalik roviychilik yo'q bo'lib ketgan. Shundan keyin rivoyatni xohlagan vaqtda

xohlagan kishi aytishi mumkin. Uni professional ertakchi yo dostonchi aytishi shart emas, balki eshitgan, bilgan shaxs xohlagan vaqt va formada hikoya qiladi" [5:72].

Rivoyatlar yuzasidan muxsus tadqiqotlar olib borgan olim K.Imomov janr tasnif yuzasidan shunday munosabat bildiriladi. "Ma'lumki rivoyatning ikki xil tasnifiy mavjud. Biri uning mavzusiga ko'ra, ikkinchisi badiiy-shakliy tuzilish mezoniga ko'ra tasnifdir. Tasnifning ikkinchi xilida asosiy e'tibor sujet tuzilishi (struktura), aniqrog'i, shakl-shamoyili, motivlar elementiga qaratilgan. Aytish joizki, rivoyatning badiiylik darajasi nisbatan kuchsiz" [5:79]. Ilmiy manbalarda e'tirof etilganidek, "Roviy – (hikoyachi, qissa aytuvchi, xabar, ma'lumot beruvchi) – epik asarlardagi rivoya subyekti, voqealarni hikoya qilayotgan, ular kechayotgan makon va zamon, ularda ishtirok etayotgan personajlarga oid tafsilotlarni yetkazib, tasvir predmetiga u yoki bu tarzda munosabat bildirayotgan shaxs. Epik asarda rivoya, ko'proq, muallif, ba'zan esa personaj tilidan olib boriladi. Shuningdek, ba'zan asarda bir necha roviyning ishtirok etishi ham kuzatiladi" [8:256-257]. Shunday ekan, rivoyatlarni nazmiy bayon etishda mazkur holat yanada yirik planda namoyon bo'ladi. Mazkur holatni shunday izohlash mumkinki, rivoyatda asosan, voqea, sujet va uning mazmun-mohiyatining bayoniy ifodasi muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy e'tibor muayyan voqea mohiyatini estetik ta'sirchanlikda yetkazishga qaratiladi. E'tirof etish lozimki, fizika qonuniyatlari asosida izohlaydigan bo'lsak, badiiy talqinda epik bayon an'anaviy kuchlanishga ega bo'lsa, nazmiy ifoda yuqori kuchlanishli quvvatni sodir qiladi. Nazariy jihatdan shoir muayyan rivoyat va uning mazmuni ta'sirida ayni o'sha ruhiy holatga ko'chgan holda mavjud sujetni lirikada qayta yaratishga urinadi. Bu o'rinda ijroviy lirika yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, "Ijroviy lirikaning subyektiv shakllantirilishiga ko'ra farqlanuvchi ko'rinishlaridan biri, lirik kechinma o'zga shaxs tilidan ifoda etiluvchi she'r. Ya'ni bunda shoir go'yo o'zga shaxsga evriladi, uning "roli"ni ijro qiladi, natijada ijroviy lirika qahramoni lirik kechinmaning yagona subyekti bo'lib qoladi. Ijroviy lirikaning ildizlari kurtak holda xalq og'zaki ijodida, mumtoz she'riyatimizda kuzatilsa-da, uning keng ommalashishi XX asrga to'g'ri keladi" [8:110].

Manbalarda qayd etiladiki, shoir "Xilvatiy (Mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li)ning hayotlik chog'ida uchta – "Mavludi sharifi turkiy", "Sayr uljibol min sayr irrijo" ("Erkaklar sayridan bo'lmish tog' sayri"), "Chirog'i maktab" she'riy risolasi chop etilgan va ular xalq orasida mashhur bo'lgan. "Sayri jibol" (1328) masnaviy usulida yozilgan, "Charog'i maktab" esa axloqiy, diniy-tarbiyaviy she'riy asar. Bu asar aqoidlar (e'tiqodlilar) haqida yozilgan va boshlang'ich maktab bolalariga mo'ljallangan. Unda Allohning sifatleri, uning yaratuvchiligi, mutlaqligi, Qur'onda zikr qilingan 25 payg'ambar nomlari, oxirgi payg'ambar Muhammad (s.a.v.) sifatleri: me'roj voqealari she'riy tarzda bayon etilgan. Xilvatiy "Mavludi sharif"ni turkiyda yozgan. Bu mumtoz adabiyotda payg'ambar mavludlari haqida o'zbek tilida yaratilgan birinchi she'riy rivoyatdir" [11].

Zamonaviy she'riyatda folklor an'alarining xos xususiyatlarini o'rgangan L.Sharipova o'z tadqiqotida "Adabiy alla", "Adabiy yor-yor", "Adabiy topishmoq", "She'riy latifa" kabilarni folklorizm hodisasi sifatida e'tirof etgan holda ularga atroflicha ta'riflar beradi. Olima

ta'kidlaydiki, "Dastlabki yozma allalarni bolalar shoirlari yaratishdi... Vaqt o'tib bolalar shoiri sanalmagan ijodkorlar ham allalar yaratdilar. Bu janr stilizatsiya qilingach, folklor allasidan farqlash uchun "adabiy alla" atamasini qo'llash ehtiyoji paydo bo'ldi... Yozma allani ham folklorga xos alladan farqlash uchun shartli tarzda "adabiy alla" istilohini qo'llash maqsadga muvofiq" [7:20-21]. Bundan tashqari, "She'riy latifa" xususida munosabat bildirar ekan uni faslida "yozma latifaning she'riy tarzda yaratilgani, unda zukkolik va kulgu vobastaligi, XX asrning 70-yillarida she'riy latifalar yaratgan E.Vohidov xalqona hajvni yozma she'riyatga ko'chirib, bu borada o'ziga xos yo'l tutdi" [7:22], – deya alohida e'tirof etadi. Ayni xulosalarga hamohang ravishda yana bir monografik tadqiqotda ham she'riyatdagi rivoyaviy usul haqida ixcham munosabatlar aks etadi. Tadqiqot muallif e'tirof etadiki, "Abdulla Oripovning hajviy she'rlaridan yana biri "Qaysar bola" 1994-yilda yozilgan. Ushbu she'r sarlavhasi ostida "Qiziqchilar bisotidan" degan izoh berilganligi ham uning

xalq og'zaki ijodi va hajviyot bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. She'r rivoyaviy usulda bo'lib, u ertaklarga xos an'anaviy "Bor ekan-u yo'q ekan, Bir bola bo'lgan ekan" degan jumlar bilan boshlanishi fikrimizning dalili" [6:113]. Bundan anglashiladiki, folklorga xos janrlar badiiy adabiyot, xususan, she'riyatda badiiy talqin qilinir ekan, unda shoir muayan voqelik, davr ruhi va ma'naviy ehtiyojiga ko'ra mavzuga murojaat qiladi.

Xulosa. Ko'rinadiki, adabiy tur, janr, shakllararo uyg'unlik badiiy talqinda o'ziga xos estetik ta'sirchanlik va muayyan badiiy funktsiya bajaradi. Shunday ekan, adabiyotshunoslikda o'rganilgan va asosli xulosalarga kelingan "Nasriy she'r", "She'riy roman", "Adabiy alla", "Adabiy yor-yor", "Adabiy topishmoq", "She'riy latifa" kabi janr yoki adabiy terminlar qatorida "Rivoyaviy she'riyat, yoki she'riy rivoyat" istilohini ham qo'llash o'z asoslariga ega. Mavjud ilmiy-nazariy qarashlar hamda kuzatishlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, nazmiy rivoyaning jismi – she'riyat, ruhi esa folklorga xosdir.

Adabiyotlar

1. Атажанов С. Эркин Самандарнинг фольклоризмлардан фойдаланиш маҳорати Филол. фан. фалс. д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2022.
2. Ашурова Г. Абдулла Орипов шеърлятида анъана ва бадий маҳорат (образ, ғоя ва тасвир): Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2008.
3. Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеър: Филол. фан. д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 1995.
4. Жумаев З. Ўзбек халқ тарихий ривоятлари (ўрганилиши, ўзига хос хусусиятлари ва таснифи). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2005.
5. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: «Фан», 2008.
6. Равшанова Г. Абдулла Ориповнинг ҳажвнавислик маҳорати. // Абдулла Орипов ижодининг илмий-маърифий аҳамияти мавзусидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2020.
7. Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърляти бадий тараккиётида фольклор: Филол. фан. д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2019.
8. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: «Akademnashr», 2013.
9. Matyakupov S. Hozirgi o'zbek she'riyatida dialog va uning funktsiyasi. Filol. fan. doktori... diss. – Toshkent, 2024.
10. Mamiraliyev Q. Istiqloq davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi: Filol. fan. fals. doktori (PhD)... diss. – Toshkent, 2024.
11. <https://uzsmart.uz/ensiklopediya/ensiklopediya/xilvatiy.html>